

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “AQLLI SHAHAR” TEXNOLOGIYALARINI JORIY
ETISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

Aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va hududlarni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) [1-ilovaga](#) muvofiq;

2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda Chora-tadbirlar rejasi deb ataladi) [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarga Konsepsiya hamda Chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda va ilmiy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda belgilangan tartibda ko‘maklashsin.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-dekabrda 791-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.12.2025-y., 09/25/791/1167-son)

3. Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini tatbiq etish hamda ilmiy-ta’lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ekspertlar (maslahatchilar), investorlarni, shu jumladan xorijlik investorlarni keng jalb etish yo‘li bilan Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini;

Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tadbirlarga muvofiq aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va hududlarni rivojlantirish uchun munosib sharoitlar yaratilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi raisi S.R. Xolmuradov va O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri I.Yu. Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 18-yanvar,
48-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-son qaroriga
[1-ILOVA](#)

O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish

KONSEPSIYASI

Bugungi kunda O‘zbekistonda “Aqlli shahar” innovatsion texnologiyalarini joriy etishning boshlang‘ich bosqichi davom etmoqda. “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha Toshkent shahrida “Xavfsiz shahar”, “Aqlli hisoblagichlar”, “Aqlli transport”, “Aqlli tibbiyot” yo‘nalishlari bo‘yicha dastlabki sinov loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Nurafshon shahrida zamonaviy shahar infratuzilmasini joriy etish bo‘yicha keng

qamrovli ishlar bilan birga “Tashkent City” va “Delta City” loyihalari doirasida zamonaviy shaharsozlik infratuzilmasini joriy etish bo'yicha kompleks ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining rivojlanmaganligi, shaharlar infratuzilmasining sezilarli darajada jismonan va ma'nan eskirganligi “Aqlli shahar” texnologiyalarini samarali joriy etishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bularning hammasi telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish chora-tadbirlarini ko'rish hamda shaharlar infratuzilmasini rekonstruksiya qilish uchun yirik investitsiya manbalarini izlashni talab etadi.

Ushbu asosda oldinda turgan muhim vazifalardan biri xorijiy mamlakatlardagi mazkur yo'nalishlar bo'yicha hal qilingan qarorlarni chuqur tahlil qilish, tegishli tajriba loyihalari hamda laboratoriya va dala tadqiqotlari doirasida amaliy tajribalarni o'tkazish, shuningdek, mavjud sharoitlarga mos ravishda investorlar uchun qiziqarli investitsiya sxemalarini va moslashuvchan biznes modellari bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqish va ularning mavjud variantlarini izlab topishdan iboratdir.

Jahon amaliyotida davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish, ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal etishga xususiy biznesni jalb etish orqali ushbu muammolarni hal qilish yo'llari ishlab chiqilgan.

“Aqlli shahar” texnologiyalarining joriy qilinishi yagona raqamli muhitni shakllantirish orqali shaharni boshqarish samaradorligini oshiradi, shu bilan birga shaharni bir butun holatda boshqarishga imkoniyat yaratadi.

Shu munosabat bilan, yuqorida keltirilgan vazifalarning alohida ahamiyati, shuningdek, mazkur yo'nalishda davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) ishlab chiqildi.

1-bob. Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari

1. Ushbu Konsepsiyaning asosiy maqsadi “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish orqali shaharlarning zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat, jumladan:

shaharlar aholisi va mehmonlar uchun qulay muhit shakllantirish, yashash sifatining barqaror o'sishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

davlat xarajatlari samaradorligini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish orqali oshirish;

xorijiy uslublarga mos keluvchi barcha “Aqlli shahar” texnologiyalarini rejali joriy etish; innovatsion qarorlar qabul qilishni yo'lga qo'yish orqali shahar xizmatlari va yo'l-transport infratuzilmasi ishlarining samaradorligi oshirish.

2. Konsepsiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

“Aqlli shahar” texnologiyalari, shu jumladan raqamli infratuzilmani joriy etishning samarali hamda huquqiy-me'yoriy, tashkiliy va institutsional asoslarini yaratish;

aqlli xizmatlarga bo'lgan talabni rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish;

aqlli xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish;

xizmatlar ko'rsatish sifatini va aholi turmush darajasini oshirish;

shaharlarning muhandislik-kommunikatsiya holati bilan bog'liq muammolarni hal qilish, shuningdek, ishga yaroqsiz va ma'nan eskirgan shahar infratuzilmasini yangilash;

axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini ta'minlash uchun hamda internet tarmog'iga kirish va uning tezligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish tizimini shakllantirish;

shahar aholisi bilan shaharlarda xizmat ko'rsatish tizimini baholash va shaharlar rivojlanishining barcha sohalarida tajriba almashish yuzasidan aloqa o'rnatilishini ta'minlovchi “Aqlli shahar” platformasini yaratish;

raqamli texnologiyalardan foydalangan holda shaharlarni o'rganish tizimini rivojlantirish, shu jumladan sayyohlarga ochiq ma'lumotlar bazasini taqdim etish, raqamli texnologiyalar tizimini qayta ishlab chiqish va joriy etishni jadallashtirish;

eng talabgor “Aqlli shahar” texnologiyalarini respublikaning barcha shaharlarida joriy etishni keng qamrovli rejalashtirish ishlarini bajarish.

2-bob. “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish loyihalarini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari

1. “Aqlli transport”

“Aqlli transport” — bu barcha transport vositalari va infratuzilma tizimining bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi kompleks texnologik yechimlarni bildiradi. Ushbu aloqa tizimi orqali yo‘llarda vaziyatni to‘liq aniqlash, shuningdek, mobil operatorlar ma’lumotlari va GPS signallaridan foydalangan holda transportlar oqimini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

“Aqlli” shahar transport tizimining rivojlanishi, shuningdek, yangi transport turlari va transportlarga xizmat ko‘rsatish joylari, trafikni boshqarish va nazorat qilish, eng maqbul yo‘lni hisoblash uchun turli ilovalarning paydo bo‘lishi transportlar harakati jarayonini va unga moslashuvchanlik holatini yaxshilaydi hamda masofani o‘tishga ketadigan vaqtni qisqartirish imkoniyatini yaratadi.

“Aqlli transport” yo‘nalishida texnologik yechimlarni joriy qilish orqali quyidagilar ko‘zda tutiladi:

- yo‘l harakatini boshqarish tizimini avtomatlashtirish va transportlar oqimi ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, shu jumladan real vaqt rejimida harakat shartlarini monitoring qilish;

- jamoat transportini boshqarishni dasturiy ta‘minlash;

- yo‘l harakati qatnashchilariga avtomatlashtirilgan tizim orqali yo‘ldagi sharoitlar va vaziyatlar, jamoat transportining harakat jadvallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yetkazish;

- jamoat transportida xavfsizlik tizimlari;

- axborot uzatish texnologiyalarini, ya‘ni ma’lumotlarni to‘plash va saqlash joyiga uzatishni ta‘minlaydigan 5G standartiga mos keluvchi aloqa vositalarini va bajaruvchi qurilmalarni, keng qamrovli Internet tarmog‘i va boshqa elementlarni joriy etish;

- “Aqlli shahar” uchun Internet tarmog‘ining shahar platformalarini joriy qilish;

- transportlarni joylashtirish uchun bo‘sh joylar va ularning uzoqligini aniqlovchi “Aqlli joylashtirish” texnologiyasi;

- avtomobil va yo‘llardan foydalanish uchun elektron to‘lov tizimlari;

- yo‘lovchilarni tashish holatini uzluksiz monitoring qilish;

- geoaxborot texnologiyalari va navigatsiya.

2. “Aqlli ta‘lim”

“Aqlli ta‘lim” — bu ta‘lim onlayn-platformalar va ommaviy ochiq onlayn kurslar tarzidagi texnologik yechimlar to‘plamini, virtual real holat bilan to‘ldirilgan ilg‘or vizualizatsiya va masofaviy kirish texnologiyalari va boshqalarni o‘z ichiga olgan texnologik yechimlar to‘plamidir.

“Aqlli ta‘lim” texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:

- o‘quvchilarni sinab ko‘rish imkoniyati bilan sun‘iy intellekt bazasida ta‘lim berish tizimi;

- shaxsni intellektual aniqlash tizimi;

- masofaviy ta‘lim va elektron o‘qitish;

- ta‘limning barcha bosqichlarini qamrab olgan elektron jurnallar;

- onlayn va oflayn uslublaridagi integratsiya tizimlari;

- adaptiv va mobil o‘qitish texnologiyalari.

3. “Aqlli tibbiyot”

“Aqlli tibbiyot” — bu aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish va axborot berishning butun jarayonini avtomatlashtirishning markazlashgan tizimidir.

“Aqlli tibbiyot” texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:

- mijozlar to‘g‘risidagi biotibbiy ma’lumotlarning yagona platformasi;

- tibbiy kartalarining tarmoqli tizimini joriy qilish;

- masofaviy diagnostika. Tibbiy internet va mobil ilovalar asosida inson salomatligini masofadan monitoring qilish tizimi;

virtual tibbiy ko'rikdan o'tkazish;
virtual shifoxona xizmati;
elektron retseptlar;
telemetriya va simsiz aloqadan foydalangan holda tibbiy yordamni uyda olish;
ilmiy asoslangan tibbiyot (sun'iy intellekt va telekommunikatsiyalar sohasidagi texnik yangiliklar asosida yaratilgan qurilmalarni qo'llash orqali);
davolash natijalaridan kelib chiqib ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovni amalga oshirish (shifokorga tashrif buyurganlarning soniga emas, balki davolash natijasi bo'yicha to'lov amalga oshiriladi);
tibbiy ma'lumotlar, kasallanishlar rejalari, kasallanish va tuzalish jarayonlarini tahlil qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;
real vaqt jarayonida dori-darmon zaxiralarini kuzatish imkoniyatini beruvchi integratsiyalashgan (GPS va mobil platformalar bilan jihozlangan) tibbiy punktlar.

4. “Aqlli energetika tizimi”

“Aqlli energetika tizimi” — bu barqaror, iqtisodiy samarali va ishonchli energiya tizimi bo'lib, energiya ishlab chiqarish, infratuzilmasi va iste'moli xizmati ko'rsatish iste'molchilar va texnologiyalarni rag'batlantirish orqali integratsiya qilinadi va muvofiqlashtiriladi.

“Aqlli energetika (“aqli taqsimlash tarmoqlari”, “aqli nazorat-o'lchov tizimlari” va boshqalar) va energiya tejovchi texnologiyalar”dan (“aqli chiroqlar”, “aqli yoritgichlar”) foydalanishga o'tish iste'mol qilinayotgan elektr energiyani tejash, uni uzatish jarayonidagi uzilishlarda yo'qotishlarni kamaytirish, uskunalar uchun kapital sarf-xarajatlar va avariya holatlari sonini kamaytirish, shuningdek, elektr tarmoqlarining mustahkamligi va sifatini oshirishga imkoniyat yaratadi.

“Aqlli energiya tizimi” texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:

ma'lumotlarni yig'ish va operativ dispatcherlik boshqarish tizimi;
avariya holatlarida o'chirishlarni boshqarish tizimi;
mijoz bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimi;
geoaxborot tizimi;
kuchlanishni monitoring qilish uchun avtonom sezgichlar;
har xil turdagi qurilmalarning integratsiyasini hamda ma'lumotlarni oldindan tahlil qilish va yig'ishni ta'minlovchi internet qurilmalarining raqamli platformalari;
yangi avlod gibrid batareyalari, yuqori o'tkazuvchan qurilmalar, litiy akkumulyatorlari;
“aqli” o'lchov tizimlari, iste'molchilar faolligini tahlil qilish;
yangi tahliliy hisob-kitob va to'lov xizmatlari (tegishli moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish orqali);
energiya resurslari iste'molini hisoblashning intellektual tizimlari.

5. “Aqlli suv ta'minoti va oqova suv”

“Aqlli suv ta'minoti va oqova suv” — sel oqimlarini taqsimlash tizimi, xavfsizlik va nazorat, uni boshqarish hamda toshqinlardan ogohlantirish tizimlarini integratsiya qilish yo'li bilan onlayn-gidravlik modellar, avtomatlashtirilgan suv havzalari, suvni tarqatish va uning yo'qotilishini avtomatik aniqlash bazasi orqali suv ta'minotini boshqarishdan iborat.

“Aqlli suv ta'minoti va oqova suv” texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:

geografik axborot tizimini joriy etish orqali yagona axborot tizimi;
suv ta'minoti va oqova suv iste'molchilari va ko'rsatilgan xizmatlar hajmlarini hisobga olish tizimi;
suv o'tkazgichlar va oqova suv tarmoqlari yo'nalish xaritalarining elektron shakllar tizimi;
bosim regulatorlari va elektron uzatkichlar o'rnatilgan tarmoqlarda suv ta'minoti va oqova suv tizimi;

markaziy dispetcherlik xizmati — ishlarini avtomatlashtirish tizimi va onlayn tizimda monitoring olib borish;

suv oqib ketishi holatlari aniqlanganda suv ta'minotini to'xtatish tizimi;

favqulodda vaziyatlarda butun uyni isitish kranlarini yopish tizimi;

avariya holatlari sodir bo'lganda suv bilan ta'minlovchi nasoslarni o'chirish tizimi;

nasos va jo'mraklar ishlashini boshqarish orqali saqlash tizimidagi suv sathini boshqarish tizimi;

sensorli smestitellar va kranlarga nasadkalar o'rnatgan holda amalga oshiriladigan suv ta'minoti texnologiyalarini joriy qilish.

6. “Aqlli uy-joy kommunal xo‘jaligi”

“Aqlli uy-joy-kommunal xo‘jaligi” — bu barqaror va iqtisodiy samarali uy-joy kommunal xo‘jaligi hisoblanib, intellektual hisoblash, monitoring va nazorat orqali kommunal resurslar va xizmatlarning iste'molini yuritish va ta'minlash, shuningdek, iste'molchilarning manfaatlari va texnologiyalar rivojlanishi hisobga olingan holda xizmat ko'rsatish orqali muvofiqlashtiriladi;

“Aqlli uy-joy-kommunal xo‘jaligi” texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:

keyinchalik tegishli instansiyalarga yetkazilishi hisobga olingan holda hisoblagichlarning ko'rsatishini aniqlash jarayonini avtomatlashtirish;

uyni energiya bilan ta'minlash holati to'g'risidagi ma'lumotni iste'molchining qurilmasiga yetkazish tizimlari;

kommunal xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish bo'yicha maxsus xizmat ko'rsatish va shaxsiy ofislar tizimi;

kommunal resurslar iste'molchilari va ta'minotchilari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash bo'yicha smart-hisoblagichlarni (“aqlli hisoblash asboblari”) joriy qilish, ma'lumotlar tizimi;

to'lovlarni monitoring qilish tizimlari;

infratuzilmani boshqarish tizimlari;

energiya resurslarini o'zlashtirish holatlarini aniqlash va uning oldini olish tizimlari;

energiya samaradorligini oshirish usullari va tizimlari;

suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llash orqali suv sarfini va suv ta'minoti narxini kamaytirish tizimlari;

iste'molchilarga xizmat ko'rsatishning ochiq platformalari.

7. “Aqlli qurilish”

“Aqlli qurilish” — bu qurilish sohasida obyektlarni tashkil qilish, o'zgartirish yoki buzish bilan bog'liq tashkiliy, tadqiqot, loyihalashtirish, qurilish-montaj va ishga tushirish ishlarini o'z ichiga olgan innovatsion texnologiyalardir.

“Aqlli qurilish” texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:

qurilishda monitoring va operativ boshqaruv tizimi;

obyektlarni qurish jarayonini soddalashtirish va qurish muddatlarini qisqartirish tizimi;

zamonaviy va samarali uy-joylar qurish standartlari;

yangi qurilish materiallari;

qurilish uchun loyiha hujjatlari tizimi;

mehnatga haq to'lashning ishbay va ishbay-mukofotlash tizimini qo'llash;

qurilish jarayonlarini vizual modellashtirish;

omborlarni boshqaruv tizimlari.

8. “Aqlli uy”

“Aqlli uy” — bu uy egasining istagi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, uydagi barcha kommunikatsiya tarmoqlarini sun'iy intellekt orqali boshqarish, dasturlashtirish va moslashtirish maqsadida birlashtirishga imkoniyat yaratadigan intellektual boshqarish tizimidir.

“Aqlli uy” texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:

yong'inga qarshi va qo'riqlash signalizatsiyasi;
erkin foydalanishning nazorat tizimi;
avariya holatlarni nazorat qilish (suv oqib ketishi, gaz chiqishi, elektr tizimidagi avariya);
ichki va ko'cha yoritgichlarini boshqarish;
energiya iste'molini nazorat qilish, katta kuchlanishlarni cheklash va iste'mol tarmog'i fazalariga kuchlanishni taqsimlash;
energiyani tejaydigan asboblarni qo'llagan holda elektr ta'minotining zaxira manbalarini boshqarish;
internet orqali uyning barcha tizimlarini boshqarish va uzoqdan monitoring qilish;
iste'molchining smart-qurilmasiga GSM-modul orqali uydagi suv ta'minoti tizimining ishlashi haqidagi ma'lumotlarni yetkazish;
issiqlik sarfini, konditsionerni boshqarishni va issiqlikning optimal tarqalishini monitoring qilishning intellektual sensorli tizimi;
real vaqt rejimida obyektlar qurilishini loyihalashtirish jarayonini masofadan boshqarish.

9. "Aqlli hokimiyat"

"Aqlli hokimiyat" — bu aholini bezovta qiladigan dolzarb muammolar bo'yicha mahalliy hokimiyat organlariga tegishli takliflarni ishlab chiqish va taqdim etishga qaratilgan innovatsion yechimlar va tizimlardir.

"Aqlli hokimiyat" texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:
Ijro etuvchi hokimiyat vakillari va shahar aholisi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimining yaxshi ishlashi, shahar ma'muriyati axborotlarning ochiqligi;
fuqarolarning shahar boshqaruvidagi faolligi;
shaharlarni strategik rejalashtirish hujjatlarining dolzarbligi;
shahar ma'muriyatining rasmiy saytlaridan keng foydalanish;
to'lov vositasi bilan shaxsning elektron guvohnomasi;
yuqori texnologiyalarni, yuqori tezlikdagi Internet tarmog'ini keng spektrda qo'llash va undan foydalanish;
wi-fi ga ulanish, shahar mobil ilovalarining mavjudligi va sifati;
mahalliy soliqlar va yig'imlar uchun to'lov tizimlari;
ariza va shikoyatlar berish uchun uzatuvchi qurilmalardan va fuqarolarni ogohlantirishning zamonaviy usullaridan foydalanish.

10. "Aqlli mahalla"

"Aqlli mahalla" — bu hayot sifatini yaxshilash, qulaylik va xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, shahar va aholi xarajatlarini optimallashtirish maqsadida mavjud infratuzilmaga "Aqlli shahar" ilg'or texnologiyalarini joriy qilishdir.

"Aqlli mahalla" texnologik yechimlarini joriy etish orqali quyidagilar nazarda tutiladi:
taksi chaqirish va uning to'lovi uchun internet-xizmat ishlarini yo'lga qo'yish;
yo'l harakati holatini onlayn rejimda monitoring qilish imkoniyatlari;
elektromobillar uchun yonilg'i quyish shoxobchalari tarmog'ining mavjudligi;
karshering (avtomobillarni qisqa muddatga ijaraga berish) xizmatini ko'rsatish;
internet tarmog'idan foydalanuvchilarning soni va faolligi;
talabalarning elektron kartalarini qo'llash;
mehnat bozori haqida ma'lumotlarning mavjudligi;
chiqindilarni ruxsatsiz tashlashning oqibatlarini bartaraf etishda jamoatchilikning ishtiroki.

3-bob. Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmlari va bosqichlari

1. Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasida (keyingi o'rinlarda Amaliy chora-tadbirlar rejasi deb ataladi) belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli, to'liq bajarish yo'li bilan Konsepsiya amalga oshiriladi.

2. Shahar va hududlar infratuzilmasini boshqarishning zamonaviy intellektual tizimini joriy qilish, shu jumladan uy-joy kommunal xizmatlari, transport logistikasi, favqulodda xizmatlari keyinchalik “Aqlli shahar” yagona kompleksiga birlashtirish va integratsiya qilish muvofiqlashtiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi:

Amaliy chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish bo‘yicha mas’ul vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga har chorakda Amaliy chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish bo‘yicha batafsil ma’lumotlar kiritilishini ta’minlaydi.

4. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi quyidagilarni ta’minlaydi:

Konsepsiyani amalga oshirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini o‘z vaqtida va sifatli ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda kiritish;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish;

Konsepsiyadagi tegishli tadbirlarning bajarilishi bo‘yicha muntazam monitoring tashkil etish;

xalqaro bozorda “Aqlli shahar” texnologiyalarining mahalliy ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash va eksport salohiyatni rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish;

“Aqlli shahar” texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli dasturiy ta’minotni joriy etish va kuzatib borishda ishtirok etish.

5. Amaliy chora-tadbirlar rejasining mas’ul ijrochilari quyidagilarni ta’minlaydi:

Konsepsiyani amalga oshirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli ishlab chiqish va belgilangan tartibda kiritish;

belgilangan muddatlarga va ish hajmlariga muvofiq tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish;

Amaliy chora-tadbirlar rejasidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish;

Amaliy chora-tadbirlar rejasining amalga oshirilishi to‘g‘risida har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga axborotlarni taqdim etish.

6. Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirish moliyaviy, texnologik va boshqaruv resurslarini, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida xususiy sektor resurslarini jalb qilish yo‘li bilan bajariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari va kreditlari, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining xayriya ehsonlari, qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar Konsepsiyani amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

7. Ushbu Konsepsiyani innovatsion barqaror rivojlantirish maqsadlarida amalga oshirish uchun quyidagi 4 bosqichli modeldan foydalanish tavsiya etiladi:

1-bosqich: 2019 — 2021-yillar — bazaviy liniyani aniqlash — hududning profilini shakllantirish, mavjud infratuzilmani baholash, rivojlanish indikatorlarini aniqlash, mavjud aktivlar, mavjud muammolar va erishilgan muvaffaqiyatlarni tahlil qilish;

2-bosqich: 2022 — 2024-yillar — “Aqlli shahar” Konsepsiyasini joriy qilish strategiyasini ishlab chiqish — manfaatdor tomonlarni jalb qilish, tadbirlar yo‘nalishlari va rejalarni aniqlash, xatarlarni baholash, moliyaviy strategiyani shakllantirish, maqsad va samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlarini belgilash;

3-bosqich: 2025 — 2027-yillar — batafsil rejalashtirish — budjetlashtirish, samaradorlik istiqbollari, avtomatlashtirish imkoniyatlarini aniqlash va axborot tizimlarini joriy qilish;

4-bosqich: 2027 — 2030-yillar — samaradorlikni amalga oshirish va baholash — birgalikda (barcha manfaatdor tomonlar bilan birga) joriy qilish, samaradorlikni monitoring qilish, baholash va qayta baholash (trendlar, investitsiya parametrlarini tahlil qilish), joylashtirishni ta’minlash (kengaytirish).

4-bob. Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha kutilayotgan natijalar

Ushbu Konsepsiyani amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutiladi:

- mavjud barcha shakllardagi ta’lim va malaka oshirishni kengaytirish orqali, shu jumladan internet tarmog‘i yordamida shahar aholisining bilim darajasini oshirish;
- shahar xizmatlari va davlat organlari bilan hamkorlikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali aholining faolligini oshirish;
- energetiyaning barqarorligini oshirish, sarf va xarajatlarni kamaytirish;
- energiya resurslari taqsimoti va iste’moli samaradorligini oshirish;
- iste’molchilar uchun xizmatlarning sifati, samaradorligi va interaktivligini oshirish, shuningdek, alohida tariflarni qo‘llash imkoniyatini yaxshilash;
- kelajakda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhitini yaratish;
- suv sarfi va suv ta’minotidagi uzilishlarni kamaytirish, oqova suvlarni tozalash sifatini oshirish va qattiq chiqindilarning utilizatsiya qilinishini yaxshilash;
- aholiga shahar xizmatlari ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish va aholining ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qarzдорligini qisqartirish;
- favqulodda vaziyatlar va jinoiy holatlarga javob qaytarish vaqtini qisqartirish, jinoyatchilikni va jabrlanganlar sonini kamaytirish;
- transport infratuzilmasining tirbandligini kamaytirish;
- yo‘llar va to‘xtash joylariga xizmat ko‘rsatishda iqtisod qilishni ta’minlash;
- piyodalar va jamoat transporti foydalanuvchilari uchun mobil qulaylikni yaxshilash.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-son qaroriga
2-ILOVA

2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar

REJASI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddatlari	Mas’ul ijrochilar
1.	“Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish sohasida ilmiy-tadqiqotlarni va innovatsion ishlarni amalga oshirish			

1.	“Aqlli shahar” texnologiyasini joriy etish sohasida quyidagilarga yo’naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlarni o’tkazish: asosiy yo’nalishni belgilash — hudud profilini shakllantirish, taalluqli infratuzilmani baholash, rivojlanish indikatorlarini aniqlash, joiz aktivlarni, amaldagi sinovlarni va yutuqlar tarixini tahlil qilish; “aqlli shahar” konsepsiyasini joriy etish strategiyasini ishlab chiqish — manfaatdor tomonlarni jalb qilish, chora-tadbirlar va rejalar yo’nalishlarini belgilash, tavakkalchiliklarni baholash, moliya strategiyasini shakllantirish, samaradorlikning muhim ko’rsatkichlari (KPI) va maqsadlarni belgilash; tafsilotli rejalashtirish — budgetlash, samaradorlik prognozi, avtomatizatsiyalash va axborot tizimlarini joriy etish imkoniyatlarini aniqlash; joriy etish va samaradorlikni baholash — hamkorlikda (barcha manfaatdor tomonlar bilan birgalikda) joriy etish, samaradorlik monitoringini o’tkazish, baholash va qayta baholash (KPI ni kuzatib borish, trendlar, investitsion ko’rsatkichlarni tahlil qilish), kengaytirilish (ekspansiya) ni ta’minlash.	Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida ilmiy tadqiqotlar o’tkazish. Tegishli vazirliklar va idoralarga tavsiyalar kiritish.	2019 — 2021-yillar	Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Uy-joy-kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi
2. “Aqlli shahar” texnologiyasini joriy etishning me’yoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish				

2.	O'zbekiston Respublikasida "aqlli" shaharlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari tizimini va uning samaradorligini baholash uslubini xalqaro standartlar talablari hisobga olingan holda ishlab chiqish.	O'zbekistonda "Aqlli shahar" konsepsiyasini amalga oshirish samaradorligini baholash uslubini vositalarini belgilovchi Davlat standartlarini ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini xalqaro standartlar hisobga olingan holda ishlab chiqish va tasdiqlash.	2019-yil noyabr	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qurilish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston avtomobil transporti agentligi, Davlat avtomobil yo'llari qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, "O'zstandart" agentligi
3.	"Aqlli shahar" konsepsiyasini amalga oshirishning huquqiy ta'minoti.	"Aqlli shahar" konsepsiyasini amalga oshirishning huquqiy ta'minoti quyidagilarni nazarda tutadi: "Aqlli shahar" konsepsiyasi natijalariga erishishga ko'maklashuvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash; me'yoriy-huquqiy hujjatlarga taalluqli o'zgartirishlar kiritish.	2019 — 2021-yillar	Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qurilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
3. "Aqlli shahar" texnologik yechimlarini joriy etish				
3.1. "Aqlli transport"				
4.	Transport oqimlarini boshqarish, jamoat transportini boshqarish samaradorligi va xavfsizligi, transport oqimini optimallashtirish va ekologik yo'qotishlarni kamaytirish tizimlarini tashkil etish.	1. Manfaaddor vazirliklar va idoralar mutaxassislari orasidan muassasalararo ishchi guruhni tashkil etish. 2. "Aqlli shahar" texnologiyasini joriy etish doirasida Transport harakatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2019-yil yanvar 2019-yil mart	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat avtomobil yo'llari qo'mitasi, O'zbekiston avtomobil transporti agentligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar

	3. Transport oqimlarini va intellektual transport-logistika tizimlarini boshqarish tizimlarini tashkil etish, jamoat transportini boshqarish uchun sensorlar (datchiklar) va ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minotni joriy etish. 4. Transport harakati to'g'risida axborot bilan ta'minlovchi infratuzilma bilan jihozlangan yuqori tezlikka mo'ljallangan avtotransport yo'laklari tarmog'ini tashkil etish. 5. Haydovchilarni axborot tablolari, radio-xizmatlar, veb-saytlar vositasida xabardor qilish tizimini tatbiq qilish orqali harakat xavfsizligini oshirish, shuningdek kompyuterli yo'l harakati, videokuzatuv, yo'l harakati qoidalarini buzuvchilarni foto va video qayd etish hamda noxush hodisalarni avtomatik ravishda aniqlash tizimlarini joriy etish. 6. "Aqlli parking" va "Aqlli to'xtash" texnologik tizimini tashkil etish.	2019-2020-yillar 2019-2020-yillar 2019-2020-yillar 2019-2020-yillar	Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
--	--	---	---

		7. Yangi ekologik talablarni, ekologik nazoratning avtomatlashtirilgan ko'chma tizimlarini, transport oqimlari harakatining energiyaning samarali rejimlarini, muayyan zonalarda transport harakatini cheklash tizimini joriy etish hisobiga ekologik yo'qotishlarni kamaytirish. 8. Aqlli svetoforlarni, elektron tablolarini, yo'lovchilarni xabardor qilish tizimini, sputnikli navigatsiya tizimlarini, boshqaruvni avtomatlashtirish va yo'lovchilar tashishni tartibga solish tizimlarini, transport turlari (avtobuslar, metro, tramvaylar, trolleybuslar, marshrut taksilari) o'rtasida integratsiyalangan yo'lkira uchun elektron to'lov tizimlarini joriy etish orqali transport oqimini optimallashtirish.	2019-2020-yillar 2019-2020-yillar	
3.2. "Aqlli ta'lim"				
5.	Ta'lim sohasida ta'lim onlayn-platformalari va ommaviy ochiq onlayn-kurslar tomonidan ilgari suriladigan texnologik yechimlar to'plamini o'z ichiga oladigan innovatsion faoliyatni, virtual reallik	1. Ta'lim onlayn-platformalari va ommaviy ochiq onlayn-kurslar, vizualizatsiya va masofadan turib foydalanishning ilg'or texnologiyalarini tashkil etish bo'yicha aniq takliflar tayyorlash.	2019-yil iyun	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar

	bilan to'ldirilgan vizualizatsiya va masofadan turib foydalanishning ilg'or texnologiyalarini kuchaytirish.	2. Oliy umumta'lim muassasalarida kuzatish kameralarini o'rnatish bo'yicha kerakli huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlash.	2020-yil yanvar	
3.3. "Aqlli tibbiyot"				
6.	Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning axborot ilovasi (mijozning elektron tibbiy kartasi, elektron retseptlar,	1. "Aqlli shahar" texnologiyasini joriy etish doirasida Tibbiy xizmatlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2019-yil sentabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston

	dispanserizatsiya, homiladorlarni hisobga qo'yish va h.k.) to'liq sikli avtomatlashtiriladigan markazlashtirilgan tizimni joriy etishga ko'maklashadigan sharoitlarni yaratish.	2. Aqlli tibbiy tizimlar sohasida quyidagilarni nazarda tutuvchi sinov loyihasini amalga oshirish: mijozlarning yagona elektron ma'lumotlar bazasi; tarmoq tibbiy kartalarini yuritish; masofadan turib tashxis qo'yish; virtual dispanserizatsiya; virtual bemorga xizmat ko'rsatish; telemetriya va simsiz aloqadan foydalanib bevosita uyda tibbiy yordam ko'rsatish; ilmiy-asosli tibbiyot (telekommunikatsiya sohasida soxta-intellekt va texnik yangiliklar asosida qurilmalardan foydalanish); davolash natijasiga asoslangan xizmatlar to'lovi (shifokor qabuliga borishlar soni emas, balki erishilgan natija bo'yicha to'lanadi); kompyuter tarmoqlari imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan shifokorlik amaliyoti.	2019 — 2021-yillar	Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar
3.4. "Aqlli energetika tizimi"				
7.	Energiyani ishlab chiqarish, energiya infratuzilmasi va sarflanishi servis, iste'molchilar va texnologiyalarni rag'batlantirish orqali integratsiyalanadigan va o'zaro muvofiqlashtiriladigan barqaror, iqtisodiy jihatdan samarali va ishonchli energetika tizimini joriy	1. Elektr tarmoqlari obyektlarining samarali boshqaruvini ta'minlash chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Avtomatlashtirilgan intellektual tarmoqlar va moslashuvchan taqsimlash tizimlarini joriy etish.	2019-yil iyun 2019 — 2021-yillar	Innovatsion rivojlanish vazirligi, "O'zbekenergo" AJ, Qurilish vazirligi, "O'zstandart" agentligi

	etish.	3. Binolar qurilishida mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash va zamonaviy energiyaning tejamli va xavfsiz energiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish. 4. Energetika menejmenti standartlari va tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish.	2019 — 2021-yillar 2020-yil iyun	
3.5. "Aqlli suv ta'minoti va oqovani chiqarib tashlash tizimi"				
8.	Suv ta'minoti va oqovani chiqarib tashlash boshqaruvining amaldagi mexanizmlari samaradorligini tahlil qilish.	1. Onlayn-gidravlik modellar asosida texnologik yechimlarni joriy etish bo'yicha tavsiya beruvchi me'yorlarni ishlab chiqish. 2. "Aqlli suv ta'minoti va oqovani chiqarib tashlash tizimi" sohasida tajriba-sinov(pilot) loyihalarini joriy etish.	2019-yil avgust 2019-2020 yillar	Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qurilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar
3.6. "Aqlli uy-joy-kommunal xo'jaligi"				
9.	Quyidagilarni ta'minlash uchun texnologiyalar, ilovalar, axborot tizimlari majmuini yaratish, aqlli hisoblash uskunalari (smart-schyotchiklar)ni joriy etish: yonilg'i-energetik resurslar (keyingi o'rinlarda YOER deb ataladi) va kommunal resurslar	1. "Aqlli shahar" texnologiyasini joriy etish doirasida YOER, kommunal resurslar va xizmatlar ko'rsatish sohalarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish.	2020-yil yanvar 2020-yil yanvar	Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar

[illegible]

		3. Obyektlarni loyihalashtirish, qurish hamda binolar va inshootlardan foydalanish uchun kerakli ishlar bajarilishiga va xizmatlar ko'rsatilishiga eng yuqori xarajatlarni raqamli texnologiyalar qo'llanilgan holda hisob-kitob qilish, qayd etilgan xarajatlar to'g'riligini investitsiyalarni asoslash auditi doirasida tekshirish uslublarini ishlab chiqish va tasdiqlash. 4. Zamonaviy va samarali uy-joy hamda zamonaviy ko'chmas mulk obyektlarini qurish standartlarini ishlab chiqish. 5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini modellashtirish texnologiyalarini (Building Information Modelin, BIM) joriy etish bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqish.	2021-yil noyabr 2021-yil dekabr 2021-yil dekabr	Qurilish vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi Qurilish vazirligi, "O'zstandart" agentligi Qurilish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi
3.8. "Aqlli hokimiyat"				
11.	Shahar xizmatlari axborot tizimlari majmuini rivojlantirish bo'yicha aholiga xizmat ko'rsatish (ariza berishdan to'liq ijrogacha) jarayonlarini monitoring qilish imkoniyatiga ega pilot loyihalarni amalga oshirish.	Barcha shahar xizmatlari bo'yicha arizalar berish yagona portalini tashkil etish: kommunal xizmatlar (dispetcherlik markazi va arizalar bajarilishini hisobga qo'yish, monitoringini o'tkazish tizimi); shaharni yoritish xizmati.	2019-2020-yillar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar

12.	Jamoat joylari va transporti uchun simsiz tizimlar va qurilmalarni joriy etish uchun sharoitlar yaratish.	Simsiz tizimlar va qurilmalarni (wi-fi bepul nuqtalarini) tashkil etish: jamoat joylarida — bozorlar, ta'lim va davolash-sog'lomlashtirish muassasalari, dam olish zonalari, madaniy, ko'ngilochar va sport muassasalari; jamoat transportida — avtobuslar, mikroavtobuslar salonlarida yo'lovchilarni tashish amalga oshirilishida, trolleybuslar, taksi va shahar relsli transporti (tramvay, metro); turizm obyektlarida — mehmonxonalar, muzeylar, galereyalar, art-kafe, shahar tarixiy-me'moriy majmualari, hiyobonlar, qo'riqxonalar, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari va h.k.	2019-2020-yillar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Davlat turizmni rivojlantirish qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
13.	Talab qilinadigan davlat elektron xizmatlarini shakllantirish uchun "Aqlli shahar" majmuasi axborot tizimlarini "Elektron hukumat" tizimi bilan bosqichma-bosqich integratsiyalash.	1. Chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish. 2. Davlat organlari va fuqarolarning xizmatlar tez ko'rsatilishini, foydalanish oddiyligini, davlat xizmatlaridan foydalanish qulayligini ta'minlaydigan o'zaro hamkorligi.	2019-yil iyun 2019-2020-yillar	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar

		3. Davlat organlari va biznesning muvofiqlashtirish jarayonlaridan o'tishni tezlashtirish, qog'oz hujjatlardan foydalanish zaruratini istino qilish hamda kerakli axborotni to'plash va ishlash jarayonini jadallashtirish imkonini beradigan o'zaro hamkorligi. 4. Davlat organlarining zamonaviy texnologiyalar yordamida davlat organlari o'rtasidagi ichki va tashqi aloqalarni takomillashtirish imkonini beradigan o'zaro hamkorligi.	2019-2020-yillar 2019-2020-yillar	
14.	Kanalizatsiya infratuzilmasini monitoring qilish va boshqarishga hamda maishiy, sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilishga yordam beradigan texnologiyalar, ilovalar, axborot tizimlarini joriy etish uchun sharoitlar yaratish.	1. "Aqlli shahar" texnologiyasini joriy etish doirasida maishiy, sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Biznes-jarayonlarda chiqindilar bilan ishlash sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni tashkil etishni iqtisodiy rag'batlantirish bo'yicha aniq ilovalarni kiritish.	2020-yil yanvar 2020-yil iyun	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
3.9. "Aqlli mahalla"				
15.	Shahar va aholi turmush sifatini oshirish, qulayligi va xavfsizligini	1. Elektron ovo berish axborot tizimlarini joriy etish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2019-yil dekabr	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

	ta'minlash, shuningdek xarajatlarini optimallashtirish maqsadida mavjud infratuzilmalar darajasini rivojlantirish.	2. Raqamli servislarni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish: ko'p kvartirali uylarda uy-joy egalarning elektron ovoz berishlari, ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan nafaqalar ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilish.	2020-yil avgust	Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar
16.	"Aqlli shahar" texnologiyasini joriy etish orqali ijtimoiy infratuzilma holatini yaxshilash.	1. Ko'chalar, shuningdek o'yin zonalar va jamoat dam olish joylarini yoritish uchun "NEK" AJ sertifikatli organlarida sertifikatdan o'tgan kompaniyalarning yorug'lik diodli lampalarini joriy etish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Sarflanishiga qarab, suvni isitish uchun quyosh kollektorlaridan foydalanish. 3. Issiqlik ta'minoti bo'yicha barcha kamchiliklar bartaraf etilgan holda binolar va inshootlarning energiya auditini o'tkazish. 4. Ko'chalarni harakatlanish va yoritish tizimi rostlanishini avtomatik darajalash datchiklarini o'z ichiga olgan yoritish tizimlari hamda onlayn rejimida ishlaydigan suv ta'minoti va elektr ta'minotini hisoblash uskunalari bilan ta'minlash. 5. Xonalarni isitish uchun quyosh vakuumli kollektorlarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2019-yil sentabr 2019 — 2021-yillar 2019 — 2021-yillar 2019 — 2021-yillar 2019-yil avgust	Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

		6. Zamonaviy energiya tejaydigan derazalar, eshiklar, xonalarni isitish tizimlari va shu kabilarni o'rnatish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2019-yil avgust	
3.10. "Aqlli uy"				
17.	Uyda, ofisda, kvartirada yoki binoda datchiklar, boshqaruvchi qismlar va ijro qurilmalarini o'z ichiga oladigan yagona boshqaruv tizimini yaratish.	1. Uyda, ofisda, kvartirada yoki binoda datchiklar, boshqaruvchi qismlar va ijro qurilmalarini o'z ichiga oladigan yagona boshqaruv tizimini joriy etish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Barcha yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarda va jamoat binolarida "aqlli uy/bino" texnologiyalari: smart-schyotchiklar, tutun chiqishdan ogohlantiruvchi datchiklar, energiya tejamli diod yoritish lampalari, quyosh panellari, quyosh nuri bilan isituvchi qurilmalar o'rnatish. 3. Suv, gaz sirqib chiqishi, avariya vaziyatlarida elektr tarmog'ida avariya datchiklari va sensorlarini joriy etish.	2019-yil noyabr 2019 — 2021-yillar 2019 — 2021-yillar	Qurilish vazirligi, Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
4. "Aqlli shahar" majmuasining texnik vositalari va boshqa tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish				
18.	Xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslanib, "Aqlli shahar" majmuasining texnik vositalari va boshqa tarkibiy qismlari ishlab chiqarilishini mahalliyashtirish imkoniyatlarini o'rganish.	"Aqlli shahar" majmuasining texnik vositalari va boshqa tarkibiy qismlari ishlab chiqarilishini mahalliyashtirish bo'yicha aniq takliflar tayyorlash.	2019-yil aprel	Innovatsion rivojlanish vazirligi, "O'ztransgaz" AJ, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

5. “Aqlli shahar” Konsepsiyasini aholi oʻrtasida keng tushuntirish ishlarini hamda uni ilgari surish va targʻib qilish boʻyicha chora-tadbirlarni tashkillashtirish

19.	“Aqlli shahar” majmuasi Konsepsiyasining aholi oʻrtasida targʻib qilinishini quyidagilar nazarda tutilgan holda tashkillashtirish: bosma nashrlarda, internet tarmoqlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida telekoʻrsatuvlar va radioeshittirishlar, ijtimoiy videoroliklar, tahliliy maqolalar tayyorlash; koʻcha bannerlarida, ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda tegishli materiallarni joylashtirish.	“Aqlli shahar” majmuasi Konsepsiyasini aholi oʻrtasida targʻib qilish reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2019 — 2021-yillar	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
-----	--	--	--------------------	--

(2-ilova Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli [qarori](#) tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

(Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 19.01.2019-y., 09/19/48/2509-son; 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son; Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 16.12.2025-y., 09/25/791/1167-son)